

QASHQADARYO VILOYATIDA TABIIY RESURSLARNING GEOGRAFIK JOYLASHISHI

Bayqabilov Xusnudin Mardanovich

Shahrisabz davlat pedagogika instituti “Geografiya” kafedrası dotsenti, Geografiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

<https://orcid.org/0000-0002-0094-6013>

Eshmurodov Komil Alisherovich

Shahrisabz davlat pedagogika instituti Tabiiy va aniq fanlarni o‘qitish metodikasi (geografiya) mutaxassisligi 1-kurs magistranti

<https://orcid.org/0009-0004-8386-9381>

Annotatsiya: Mazkur maqolada Qashqadaryo viloyatida mavjud tabiiy resurslarning geografik joylashishi, hududlar bo‘yicha taqsimlanish xususiyatlari hamda ularning xo‘jalik tarmoqlarini rivojlantirishdagi o‘rni tahlil etilgan.

Hudud respublikaning janubiy qismida joylashgan bo‘lib, maydoni taxminan 28,6 ming km², aholisi 3,4 milliondan ortiq (2024-yil holatiga yaqin statistik baholar) ni tashkil etadi. Viloyatning tabiiy-iqlim sharoiti, geologik tuzilishi va relyefi resurslarning hududiy taqsimlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqotda viloyatning mineral resurslari (neft, gaz, qurilish materiallari), yer va suv resurslari, shuningdek yaylov hamda rekreatsion resurslarining joylashuvi aniq misollar asosida yoritilgan. Resurslarning shakllanishi va hududiy joylashishiga ta’sir etuvchi asosiy tabiiy omillar geologik tuzilish, relyef, iqlim va gidrografik sharoitlar ilmiy jihatdan baholangan. Shuningdek, resurslardan foydalanish darajasi, ayrim tumanlar kesimidagi tafovutlar hamda ulardan oqilona foydalanish yo‘nalishlari ko‘rsatib berilgan. Olingan natijalar viloyat tabiiy resurs salohiyatidan samarali foydalanish va hududiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: Qashqadaryo viloyati, tabiiy resurslar, geografik joylashuv, hududiy differentsiallashtirish, mineral-xomashyo resurslari, suv va yer resurslari, agroiklimiy salohiyat, landshaft tizimi, resurs salohiyati, barqaror rivojlanish.

**ГЕОГРАФИЧЕСКОЕ РАСПОЛОЖЕНИЕ ПРИРОДНЫХ РЕСУРСОВ В
КАШКАДАРЬСКОМ РЕГИОНЕ**

Байкабилов Хуснудин Марданович

Государственный педагогический институт имени Шахрисабза доцент
кафедры географии, Доктор философии в области географических наук

Электронная почта: xusnudinbayqabilov@gmail.ru

<https://orcid.org/0000-0002-0094-6013>

Эшмуродов Комил Алишерович

Государственный педагогический институт имени Шахрисабза Методы
преподавания естественных и точных наук (география) Специализированный
мастер первого года

Электронная почта: eshmurodovkomil33@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0004-8386-9381>

Аннотация: В этой статье анализируется географическое положение, особенности распределения природных ресурсов по регионам в Кашкадарьском регионе и их роль в развитии экономических сетей.

Территория расположена в южной части республики, площадь составляет около 28,6 тысяч км², население превышает 3,4 миллиона человек (статистические оценки около 2024 года). Природные и климатические условия, геологическая структура и рельеф региона напрямую влияют на территориальное распределение ресурсов. Исследование охватывает минеральные ресурсы региона (нефть, газ, строительные материалы), земельные и водные ресурсы, а также расположение пастбищ и рекреационных ресурсов на основе конкретных примеров. Основные природные факторы, влияющие на формирование и территориальное распределение ресурсов, геологическое строение, рельеф, климатические и гидрографические условия — научно оцениваются. Также показаны уровень использования ресурсов, различия между округами и тенденции в их рациональном использовании. Полученные результаты имеют важную научную и практическую ценность для разработки стратегий эффективного использования природных ресурсов региона и регионального развития.

Ключевые слова: Кашкадарьский регион, природные ресурсы, географическое расположение, территориальное дифференцирование, минеральные и сырьевые ресурсы, водные и земельные ресурсы,

агроклиматический потенциал, ландшафтная система, ресурсный потенциал, устойчивое развитие.

GEOGRAPHICAL LOCATION OF NATURAL RESOURCES IN THE KASHKADARYA REGION

Bayqabilov Xusnudin Mardanovich

Shakhrisabz State Pedagogical Institute Associate Professor of the Department of
Geography, Doctor of Philosophy in Geographical Sciences

<https://orcid.org/0000-0002-0094-6013>

Eshmurodov Komil Alisherovich

Shakhrisabz State Pedagogical Institute Methods of teaching natural and exact
sciences (geography) Specialty 1st year master

<https://orcid.org/0009-0004-8386-9381>

Abstract: This article analyzes the geographical position, features of distribution by regions of natural resources in the Kashkadarya region and their role in the development of economic networks.

The territory is located in the southern part of the republic, the area is about 28.6 thousand km², the population is more than 3.4 million (statistical estimates close to 2024). The natural and climatic conditions, geological structure and relief of the region have a direct influence on the territorial distribution of resources. The study covers the region's mineral resources (oil, gas, building materials), land and water resources, as well as the location of pasture and recreational resources on the basis of specific examples. The main natural factors influencing the formation and territorial distribution of resources, the geological structure, relief, climatic and hydrographic conditions are scientifically evaluated. It also shows the level of resource use, disparities across districts and trends in their rational use. The results obtained have an important scientific and practical value in the development of strategies for the effective use of the natural resources of the region and regional development.

Keywords: Kashkadarya region, natural resources, geographical location, territorial differentiation, mineral and raw material resources, water and land resources, agroclimatic potential, landscape system, resource potential, sustainable development.

Kirish. Mazkur maqolada Qashqadaryo viloyatida tabiiy resurslarning geografik joylashuvi, ularning hududiy taqsimlanish xususiyatlari hamda iqtisodiy rivojlanishdagi o'рни ilmiy aktik asosda yoritiladi. Viloyat O'zbekiston Respublikasining janubiy qismida joylashgan bo'lib, maydoni qariyb 28,6 ming km²ni tashkil etadi. Geografik jihatdan hudud tog', tog'oldi va cho'l zonalarini o'z ichiga olgani sababli, tabiiy resurslarning joylashuvi ham notekis va murakkab tuzilishga ega.

Barchamizga ma'lumki, viloyat respublikaning yoqilg'i-energetika salohiyatida alohida o'rin tutadi. Ayniqsa, tabiiy gaz, neft, kaliy tuzlari va qurilish materiallari xomashyosi bo'yicha mamlakatning strategik hududlaridan biri hisoblanadi. Shu jumladan, yer va suv resurslari qishloq xo'jaligi rivojida muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Avvalombor, tabiiy resurslarning geografik joylashuvini o'rganish hududning iqtisodiy ixtisoslashuvini aniqlash, sanoat tarmoqlarini oqilona joylashtirish hamda ekologik muvozanatni saqlash uchun zarurdir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, tabiiy boyliklardan samarali va oqilona foydalanish mamlakat barqaror taraqqiyotining muhim shartidir.

Shu bois mazkur tadqiqotda viloyatning asosiy tabiiy resurs turlari, ularning miqdoriy ko'rsatkichlari va hududiy joylashuv xususiyatlari tahlil qilinadi hamda mavjud muammolar va ularning yechimlari faktlar asosida ko'rsatib beriladi.

Asosiy qism. Yoqilg'i-energetika resurslarining geografik joylashuvi, Qashqadaryo viloyati O'zbekistonning eng yirik yoqilg'i-energetika bazalaridan biri hisoblanadi. Viloyat hududida respublika tabiiy gaz qazib olishining qariyb 55–60 foizi to'g'ri keladi. Gaz konlari asosan Muborak, G'uzor, Dehqonobod, Qamashi tumanlarida joylashgan. Yirik sanoat obyektlari sirasiga Sho'rtan gaz koni mamlakatdagi eng yirik gaz konlaridan biri hisoblanadi. Muborak gazni qayta ishlash zavodi yiliga o'nlab milliard kub metr gazni qayta ishlash quvvatiga ega.

Viloyat tabiiy resurslari iqtisodiy ahamiyati muhimligini davlatimiz rahbari Sh. Mirziyoyevning quyidagi fikrlaridan ham bilsak bo'ladi : "...O'z bag'rida noyob boyliklarni asrab kelayotgan G'uzor tumanida suyultirilgan sintetik

mahsulotlar ishlab chiqaradigan “GTL” zavodi ishga tushirilmoqda. Albatta, bunday ulkan majmuaning qurilishi keyingi yillarda mamlakatimizda sanoat rivojini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha amalga oshirayotgan siyosatimiz natijasi, desak, to‘g‘ri bo‘ladi” [1].



1-

rasm.

Qashqadaryo viloyatida joylashgan “GTL” zavodi.

Bu zavodda tabiiy gazni qayta ishlab, yuqori sifatli va ekologik toza dizel, aviakerosin (JET A-1), nafta va suyultirilgan gaz ishlab chiqarish. Zavod yiliga 307,3 ming tonnadan ortiq aviakerosin va katta hajmdagi dizel yoqilg‘isi ishlab chiqarib, mamlakatning aviakerosinga bo‘lgan ehtiyojini to‘liq qoplaydi. Ekologik jihatdan ishlab chiqarilgan yoqilg‘ilar past oltingugurtli bo‘lib, atrof-muhitga zarari kam hisoblanadi.

Qolaversa Qashqadaryo viloyati mineral resurslarga ham boy hududlardan biri bo‘lib, neft va gaz konlari, qurilish materiallari (gips, ohaktosh, qum-shifer) mavjud. Ushbu resurslar viloyatning energetika va qurilish tarmoqlarini rivojlantirishda asosiy omil hisoblanadi. Hududiy differensiallashuv jihatidan, neft va gaz zaxiralari asosan Boysun, Qamashi va Muborak va boshqa tumanlarida jamlangan.

Mineral xomashyo resurslarining tarqalishi, Qashqadaryo viloyati xo‘jalikning barcha tarmoqlarini rivojlantirish uchun zamin yaratadi. Olib borilgan ko‘p yillik geologik qidiuv ishlari Qashqadaryo viloyati hududida sanoat

ahamiyatiga ega bo'lgan turli mineral homashyo zaxiralarining mavjudligini aniqlash imkonini berdi. Viloyatdagi asosiy foydali qazilmalarni tabiiy gaz, gazli kondetsat, neft, osh va kaliy tuzlari, qurilish matereallari tashkil etadi. Viloyat zaminida qazib olinayotgan va aniqlangan yerosti boyliklarining eng asosiysi gaz va neftdir. Qashqadaryo viloyati zaminida davlat balansi hisobidagi 55 dan ziyod gaz va gazli kondetsat konlari aniqlangan. Bu konlardan 6 tasi gaz neftli, ikkasi neftli, 24 tasidan ziyodrog'i gaz kondetsatli va 3 tasi gaz konlaridir.

Qashqadaryo hududi geologik xususiyatlariga ko'ra Janubiy g'arbiy Hisor neft gaz oblastiga kiradi. Bu yerda geologik qidiruv ishlari natijasida neft va gazning 45 dan ortiq konlari, 14 ta neft va gazning istiqbolli tuzilmalari aniqlandi. Hozirgi paytda qidiruv geologik ishlar o'tkazilgan umumiy maydon 7 174 km kv tashkil etadi va bu maydonda 700 ga yaqin quduq qazilgan. Tabiiy gaz va gazli kondetsatning aniqlangan zahiralarga nisbatan Qashqadaryo viloyatlar orasida mamlakatimizda birinchi o'rinda turadi.

Viloyatda qishloq xo'jaligi uchun qulay yer resurslari mavjud bo'lib, sug'oriladigan maydonlar Markaziy Qashqadaryo, Shahrisabz va Qarshi atrofida to'plangan. Shuningdek, Chirchiq, Qashkadaryo va boshqa kichik daryolar viloyatning sug'orish va ichimlik suvi manbai sifatida ahamiyatli. Hududiy joylashuvga qarab, ayrim tumanlarda yer resurslari yetarli, ayrimlarida esa cheklangan hududlardan biri hisoblanadi.

Sayyoramizda kishilar hayotining farovonligi uchun albatta tabiiy resurslardan foydalanish kerak. Lekin tabiiy resurslardan foydalanishda nihoyatda ehtiyotlik bilan ularni qayta tiklashga alohida e'tibor berish bilan birga olib borilishi kerak. Biz tabiatga ta'sir etib, undan o'zimiz uchun zarur bo'lgan narsalarni olayotganimizda, shunday ish qilaylikki, akademik E.K.Fedorov aytganidek, «Tabiatdagi o'zgarishlar insoniyat uchun naf keltirsin». Lekin hozircha insonning xo'jalik faoliyati tufayli vujudga kelgan har xil chiqindilarni (zaharli gazlarni, iflos suvlarni, kimyoviy va neft mahsulotlarini, radioaktiv moddalarni va boshqalarni) atrof muhitni tiklash, yerlardan ba'zan noto'g'ri foydalanish, biologik resurslarga nisbatan noto'g'ri munosabatda bo'lish oqibatida tabiat ifloslanib,

tabiiy resurslarning holati yomonlashib bormoqda. Bu esa o'z navbatida tobora chuqurlashib borayotgan ekologik muammoni tub mohiyatini tushunib olishni, tabiat bilan jamiyat orasidagi munosabatlarni to'g'ri tashkil etishni, tabiiy resurslardan to'g'ri foydalanib, uni qayta tiklab boyitib borishni, atrof muhitni toza saqlab, xalq boyligi hisoblangan tabiiy resurslarni kelajak avlodlar uchun sof holda etkazishni taqoza etadi

Shunday qilib, hozirgi vaqtda suvdan, umuman tabiiy resurslardan foydalanishdagi barcha qiyinchiliklarga obektiv baho berish va jamiyatimizning hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish an'analarni hisobga olgan holda, tabiat boylıklaridan to'g'ri foydalanishning asosiy yo'llarini ishlab chiqish navbatdagi muhim vazifalardandir.

Qashqadaryo viloyati hududida sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan ko'mir konlari yoq. Viloyatning ko'mirga bo'lgan ehtiyojini Chakmonkuydi tog'laridagi Vori va Zarmas qishloqlari orasidagi Yakkabog'tosh ko'mir koni qisman qondirishi mumkin. Dehqonobod tumaning janubi-sharqida Dehqonobod, Xo'jarna, Qizilcha, Dardara va boshqa konlarda yonuvchi slanesning namoyon bo'lishi aniqlangan.

Rudali resurslar, asosan, viloyatning tog'li hududlarida uchraydi. Chiroqchi tumanida aniqlangan oltin va kumush konlari rangli metallurgiya sanoati uchun muhim xomashyo bazasini yaratadi. Mazkur konlarning tog'li relyef bilan bog'liqligi ularni qazib olishda murakkab texnologiyalarni talab etsada, hududning konchilik ixtisoslashuvini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, rudali resurslarni o'zlashtirish transport va energetika infratuzilmasining rivojlanishiga ham turtki bermoqda.

Noruda resurslar viloyatda keng tarqalgan bo'lib, qurilish industriyasining rivojlanishida asosiy omil hisoblanadi. Kitob tumanidagi ohaktosh konlari ohak va sement ishlab chiqarish uchun muhim xomashyo manbai sanaladi. Yakkabog' tumanida joylashgan gips va mergel zaxiralari ham qurilish materiallari sanoatini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu resurslarning tog' oldi hududlarida joylashuvi qurilish materiallari ishlab chiqarishni hududiy jihatdan samarali tashkil etish imkonini beradi.

Suv resurslari ichida Qashqadaryo daryosi alohida o‘rin tutadi. Daryo viloyat sug‘orma dehqonchiligining asosiy manbai bo‘lib, qishloq xo‘jaligi ekin maydonlarini suv bilan ta‘minlaydi. Sug‘orish tarmoqlari, kanallar va nasos stansiyalari orqali suv resurslaridan keng foydalanilmoqda. Natijada viloyatda paxtachilik, g‘allachilik va sabzavotchilik tarmoqlari barqaror rivojlangan.

Yer resurslari, ayniqsa sug‘oriladigan yerlarning salmog‘i yuqoriligi bilan ajralib turadi. Daryo vodiylari va tekislik hududlarida intensiv dehqonchilik shakllangan bo‘lib, bu hududlar agrar ishlab chiqarishning asosiy rayonlari hisoblanadi. Shu bilan birga, ayrim yerlarda sho‘rlanish va degradatsiya jarayonlari kuzatilayotgani meliorativ tadbirlarni kuchaytirishni talab etadi.

Viloyat rekreatsion resurslarga ham boy. Shahrisabz hududidagi tabiiy landshaftlar, tog‘ va adir zonalari, tarixiy-madaniy obyektlar turizmni rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi. Ayniqsa, ekoturizm va madaniy turizm yo‘nalishlarini rivojlantirish hudud iqtisodiyotini diversifikatsiya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Qashqadaryo viloyatida tabiiy resurslarning xilma-xilligi va ularning geografik joylashuv xususiyatlari hudud iqtisodiy taraqqiyotining asosiy omili hisoblanadi. Yoqilg‘i-energetika resurslari sanoatni, suv va yer resurslari qishloq xo‘jaligini, noruda boyliklar qurilish industriyasini, rekreatsion resurslar esa turizm sohasini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Kelgusida resurslardan oqilona foydalanish, ekologik muvozanatni saqlash va chuqur qayta ishlash texnologiyalarini joriy etish viloyatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta‘minlaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Qashqadaryo viloyatidagi tabiiy resurslarning geografik joylashuvi va hududiy taqsimlanishi viloyatning iqtisodiy va ekologik rivojlanish strategiyalarini belgilashda asosiy ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Mineral, yer, suv va agroiqlimiy resurslardan oqilona foydalanish hududning barqaror rivojlanishini ta‘minlaydi va turli xo‘jalik tarmoqlarini samarali rivojlantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev Uzbekistan GTL majmuasining ochilish marosimida ishtirok etmoqda //Yangi O'zbekiston. 25.12.2021 y. - <https://yuz.uz/uz/news/shavkat-mirziyoev-uzbekistan-gtl-majmuasining-ochilish-marosimidaishtirok-etmoqda>
3. "Sho'rtan gaz kimyo majmuasining ishlab chiqarish quvvatinikengaytirish" investitsiya loyihasini amalga oshirish to'g'risidagi 2965-sonli PQ (11.05.2017 й).
4. "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi" 60-sonli PF (28.01.2022 y).
5. Abdullaev S., Nazarov M.G. Qashqadaryo havzasining antropogen landshaftlari va ularning geoeologik holati. Qarshi. "Qarship oligrafiya nashr" MChJ. 2020.
6. Abdullaev, S. (2018). O'zbekistonning tabiiy resurslari va ularning geografik taqsimoti. Toshkent: Fan va texnologiya.
7. Qodirov, T. (2020). O'zbekistonning mineral resurslari: hududiy o'rganish. Samarqand: Samarqand universiteti nashriyoti.
8. Rasulov, N. (2019). Qashqadaryo viloyatining suv resurslari va ekologik muammolari. Geografiya va atrof-muhit, 3(12), 45-53.
9. Xolmatov, B. (2017). O'zbekistonning energetik resurslari: hududiy tahlil. Toshkent: Geografiya nashriyoti.
10. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi. (2022). O'zbekiston tabiiy resurslari bo'yicha statistik ma'lumotlar. Toshkent.
11. <https://lex.uz>
12. www.stat.uz
13. <http://www.qashstat.uz>